



**CHIRCHIQ OLIY TANK QO'MONDONLIK
MUHANDISLIK BILIM YURTI**

ZIRHLI QALQON

ILMIY – AXBOROT JURNALI

№ 9 (21) 2023-yil fevral

**JURNAL 2020-YIL
MART OYIDAN
CHIQA BOSHLAGAN**



**Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy,
tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz,
loqayd kishilardan yaxshidir.**

Amir Temur

**Лучше один предприимчивый, мужественный,
отважный, решительный, предусмотрительный и
бдительный человек, чем тысячи безрассудных и
равнодушных людей.**

Amir Temur

**It is better to have one enterprising, courageous,
brave, determined, prudent and vigilant person,
than thousandsof reckless and
indifferent people.**

Amir Temur



ZIRHLI QALQON

ILMIY – AXBOROT JURNALI

№ 9 (21) 2023-yil fevral



TAHRIR HAY'ATI

Bosh muharrir - bilim yurti boshlig'i, dotsent, polkovnik Shavkatbek Xusanbayevich Mamajonov.

Mas'ul muharrir - bilim yurti boshlig'ining o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, h.f.d (DSc), professor, polkovnik Sobirjon Sayipjanovich Abdurayimov.

Tahrir hay'ati a'zolari:

Ilmiy ishlar va innovatsion faoliyatni tashkillashtirish bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Muzaffar Abdurashidovich Otamatov.

Ilmiy ishlar va innovatsion faoliyatni tashkillashtirish bo'limi katta ilmiy hodimi h.f.d, (DSc), QK xizmatchisi Denis Igamberdiyevich Sultanov.

Quruvchilikdagi qo'shinlarni havo hajumidan mudofaa kafedrasida o'qituvchisi t.f.d (DSc), professor, QK xizmatchisi Ashirboy Yusubaliyev.

O'zbekiston Davlat Jahon tillar universiteti Ispan tili amaliy fanlari kafedrasida mudiri, f.f.d (DSc), professor Dilrabo Keldiyarovna Baxronova.

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasida mudiri, k.f.n., dotsent, QK xizmatchisi Ra'no Sobirovna V orisova.

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasida professori, k.f.n., dotsent, QK xizmatchisi G'ofurjon Begimqulovich Xamraqulov.

Gumanitar fanlar kafedrasida professori, f.f.d (PhD), dotsent, QK xizmatchisi Berdiyev Baltabayevich Saparov.

Umumtexnika fanlari kafedrasida professori, t.f.n., dotsent, QK xizmatchisi Farxod Matqurbonovich Matqurovov.

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasida dotsenti, p.f.f.d (PhD) QK xizmatchisi Maftuna Sharofiddinovna Islamova.

O'R Jamoat xavfsizligi universiteti Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakulteti boshlig'ining o'rinbosari, t.f.f.d (PhD), polkovnik Ikrombek Hamidullayevich Qo'ldoshev.

O'R QK Harbiy me'ros va zamonaviy tadqiqotlar instituti ilmiy axborotlar bo'limi boshlig'i, h.f.f.d (PhD), dotsent, podpolkovnik Ravshan Jumabayevich Raxmatbayev.

O'R QK Harbiy me'ros va zamonaviy tadqiqotlar instituti Zamonaviy harbiy san'atni rivojlantirish o'rganish markazi boshilmiyxodimi h.f.f.d (PhD), podpolkovnik Nizomiddin Erkinboyevich Sayfudinov.

O'R QK Akademiyasi Innovatsiya va ilmiy ishlarni tashkillashtirish bo'limi boshlig'i, h.f.f.d (PhD), podpolkovnik Rafael Talgatovich Gilyajdinov.

O'R QK Akademiyasi Harbiy xavfsizlik kafedrasida, s.f.f.d (PhD), mayor Abdukadir Karimovich Otoboyev.

Mas'ul kotib - Umumtexnika fanlari kafedrasida katta o'qituvchisi, t.f.f.d (PhD) QK xizmatchisi Akbar Ilhomovich Xurramov.

Mas'ul kotib yordamchisi - Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasida dotsenti, p.f.f.d (PhD) QK xizmatchisi Sadoqat Kamilovna Romanova.

Mazkur jurnal Chirchiq oliy tank qo'mondorlik bilim yurtining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2021-yil 4-iyun kunidagi № 300/5 qaroriga asosan harbiy, pedagogika, siyosiy va tarix fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan ilmiy-axborot jurnali.

Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi rahbariyati, O'R QK Akademiyasi, O'R QK Harbiy Tibbiyot Akademiyasi, MV Axborot Kommunikatsiya Texnologiyalari va Aloqa harbiy instituti, O'R Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Chirchiq OTQMBY, O'R QK kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi hamda boshqa vazirlik va idoralarning oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, doktorant, mustaqil izlanuvchilari, tinglovchilari, kursantlar va qo'shinlar ofitserlari tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalari kiritilgan.

Jurnaldagi maqolalarda Qurolli Kuchlarning qurilishi va isloh qilinishi, pedagogika va fondagi innovatsion yondashuvlarning turli jihatlarini yoritiladi.

Jurnaldagi maqolalardan to'liq yoki qisman foydalanilganda “Zirhli qalqon” ilmiy-axborot jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlarning haqqoriyligiga mualliflar shaxsan mas'uldir.

“Zirhli qalqon” ilmiy-axborot jurnali 2020-yil mart oyidan chiqib boshlagan.

Jurnaldagi chop etilgan maqolalar bo'yicha taklif va mulohazalarni quyidagi manzilga yuborishingiz mumkin:

Indeks: 111715, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri Amir Temur ko'chasi - 15, Chirchiq OTQMBY.

Tel.: (+99870) 716-50-50. Faks: (+99870) 716-50-07. E-XAT: kanselyariya.chvtkiu@exat.uz

© O'R Mudofaa vazirligi, Chirchiq OTQMBY nashriyoti 2023-yil fevral Jurnal 242 bet (121 varaq)dan iborat.



MUNDARIJA

TA'LIM VA TARBIYA

TASHMETOV T.X. Yoshlarni ma'naviy yuksaltirishda axborot xurujlarini oldini olish mexanizmlari.....	4
ТИЛИАХОДЖАЕВ Б.А. О методах повышения уровня стрелковой подготовленности курсантов высших образовательных учреждений.....	9
NASRIDDINOV A.N. Paramediklar bilan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	14
ISLAMOVA M. Sh., VORISOVA R.S. Kimyo fanidan oliy harbiy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish masalalari.....	19
BOTIROV S.N. Havo-desant tayyorgarligi yo'riqchilarini tayyorlashning dolzarbligi.....	23
BAZAROV S.S. Kompetensiyaviy yondashuv asosida kursantlar mustaqil ishlarini tashkil etish.....	27

NAZARIYA VA AMALIYOT

ISHPULATOV O.J. Tungi sharoitlarda o't ochish pozitsiyasi da jangovar ishlarning o'ziga xosligi.....	31
TO'RAYEV G'T. Havo-desant bo'lirmalarining taktik harakalarining asoslari.....	36
URAKOV S.E. Qurolli kuchlarning o'zgarishiga zamonaviy harbiy mojarolarning ta'siri.....	42
HAMDAMOV A.S. Harbiy nizolarda yetakchi xorijiy davlatlar armiyasidagi artilleriyaning yashovchanligini ta'mirlash tajribasi.....	48
АХУНОВ Р.М. К изучению зарубежного опыта в организации отневой выучки военнослужащих сухопутных войск.....	54
РУСТАМОВ М.Т. К анализу требований, предъявляемых к результативности применения стрелкового оружия сотрудниками органов внутренних дел.....	58
ТУРАЕВ Б.Ф. К анализу особенностей подготовки водителей и механиков-водителей в ходе спаживания для участия в боевых действиях.....	63
СУЛТАНОВ Д.И., ТИЛИАХОДЖАЕВ Б.А. О востребованности повышения уровня военно-педагогического мастерства.....	68
BOTIROV S.N. Havo-desant tayyorgarligi mashg'ulotlarida shaxsiy tarkibda axloqiy va irodaviy barqarotlikni tarbiyalash.....	75
ИБРАГИМОВ С.М. Анализ системы индивидуальной защиты кожи в иностранных армиях, основные направления и перспективы развития.....	80
RAMAZANOV A.N. Zamonaviy qurolli mojarolarning tungi sharoitida artilleriya bo'lirmalarini jangovar qo'llash tajribalari.....	87
XUSANOV Ф.А. Ёш авлодга соғлом турмуш тарзини ўргатиш ва шакллантириш омиллари.....	94
SHARIPOV A.M. Cho'l va qumli joylarda avtomobil texnikalaridan foydalanish vaqtida uchraydigan muammolarni o'rganish.....	97
ЮЛДАШЕВ Ж.М. Харбий мухассисларни тайёрлашда тренажерлардан фойдаланиш заруряти.....	100

TARIX VA BUGUN

АВАЗОВ Н.А., ИШМАНОВ F.H. XXI asrda dunyoni tashvisha solgan suriya, iraq, turkiya, yaman nizolari.....	100
SOXIBOYEV Z.E., XOLIKOV N.T. O'tta asrlarda harbiy ishning rivojlanishi va takomillashuvi.....	112
XOLBOEVA Z.C. Ўзбек халқининг мард ўғлини.....	119
XUSANOV R.B. Sulton Jaloliddin Manguberding jahon harbiy san'ati rivojiga qo'shgan hissasi.....	126

HARBIY TEXNIKA VA QUROL-YAROG'LAR

TUXTAMURODOV A.A. 82 mmli "vasilyok" 2B9 avtomatik minomyotining modernizatsiya qilinganligi to'g'risidagi tahlili.....	133
HAMROQULO'V G'.B., YERNAZAROV U.N. Radiatsion razvedka vositalari rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlari.....	139
XURRAMOV A.I., ILXOMOV J.H. Унивeрсал чакриш куришмаси ишчи камерасига курук меваларни тушириш даврини инфодаловчи регрессия тенгламалари.....	145
RAXIMOV A.Sh. Avtomobil texnikalarini ta'mirlash tizimlari va ahamiyati to'g'risida.....	150

OCHIQ BAHS VA MUNOZARA MINBARI

ARTIKOV J.M. Turkiya va Qozog'iston armiyasida operativ (jangovar) tayyorgarlikni o'rni, roli va uni olib borish xususiyatlari.....	154
СОЛИЕВ А.А., ИШМАНОВ F.H. Хуқуқбузарликларни олдини олиш муҳим вазифа сифатида.....	158
САПАРОВ А.Е. К изучению положительных и негативных факторов боевого применения танков в вооруженных конфликтах XXI века.....	165
ИРСАЛИЕВ Э.М. Харбий хизматчилар ўртасида устав қоидаларини бузганлик учун жиноий жазо қўйлашдаги муаммолар.....	172
БУРХАНОВ Т.М. Маънавий-ахлоқий фазилатлар орқали ёш харбий хизматчиларда сангел тафаккурни шакллантириш.....	179
ИСМОИЛОВ А.А. К изучению зарубежного опыта по ремонту и восстановлению бронетанковой техники в боевой обстановке.....	184
ТИЛИАХОДЖАЕВ Б.А. К разработке предложений по усовершенствованию уровня результативности боевого применения стрелкового оружия в условиях Узбекистана.....	188



TALIM VA TARBIIYA

**YOSHLARNI MA'NAVIIY YUKSALTIRISHDA AXBOROT
XURUJLARINI OLDINI OLIISH MEKANIZMLARI**

TASHMETOV T.X.,

(PhD), Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Global o'zgarishlar davrida axborot qudratli qurolga aylanishi natijasida inson ongini zabt etishga bo'lgan harakatlar tobora kuchaymoqda. O'z navbatida, mafkuraviy-g'oyaviy ta'sir o'tkazishda axborot asosiy omil vazifasini o'tayotganligini ta'kidlash o'rinlidir. Hozirda, axborot vositasi yordamida insonlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu boisdan, yoshlarimizda turli xil axborot tahdidlariga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan bo'lsa, ularga hech qanday axborot xurujlari o'zlaning g'arazli ta'sirlarini o'tkaza olmaydi. Binobarin, yoshlarimizni jamiyatimizning kelajagiga qat'iy ishonch va e'tiqod asosida tarbiyalash zamonalablaridan biridir.

Kali so'zlari: jamiyat, targ'ibot, ta'lim, modernizatsiya, tarbiya, ruhiyat, globallasuv, texnika, texnologiya, axborot, telekommunikatsiya, internet, informatsiya, kommunikatsiya, g'oya, ma'naviyat, qadriyat, urf-odat, an'ana, mafkura, intellektual, kompyuter, xuruj, tahdid, virtual, fatvo, ekstremizm.

Аннотация. В эпоху глобальных изменений усиливаются попытки покорить человеческий разум, в результате того, что информация становится мощным оружием. В свою очередь, уместно отметить, что в идейно-идеологическом взаимодействии главным фактором выступает информация. В настоящее время особое внимание уделяется воздействию на сердца, умы и психику людей с помощью средств массовой информации. Поэтому, если у нашей молодежи сформирован идеологический иммунитет к различным информационным угрозам, никакие информационные атаки не смогут оказать на них своего негативного воздействия. Следовательно, воспитание нашей молодежи на твердой вере и вере в будущее нашего общества является одним из требований времени.

Ключевые слова: общество, пропаганда, образование, модернизация, воспитание, психика, глобализация, технологии, информация, телекоммуникации, интернет, информация, коммуникация, идея, духовность, ценность, традиция, идеология, интеллектуальность, компьютер, атака, угроза, виртуальный, фетва, экстремизм.

Bugun dunyoda globallasuv, axborot oqimining tezlashuvi hamda intensivlashuvi natijasida universal texnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar jadallashib, ta'sir doirasi kengayib bormoqda. Mislsiz ilmiy kashfiyotlar, universal texnologiyalar hamda axborot tarqatishning globallasuvi dunyoda yuz berayotgan mafkuraviy jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot oqimining tezlashuvi globallasuv taraqqiyoti bilan birga kechadigan tabiiy jarayon sifatida keng imkoniyatlarga ega bo'lganligi bois, undan turli maqsadlarda foydalanish avj o'lmoqda. Ana shunday bir sharoitda yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, sog'lom dunyoqarashga ega bo'lgan, har qanday axborot xurujlariga qarshi turishga qodir, mustahkam irodali yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash, ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa bu globallasuv jarayonida axborot qudratli qurolga aylanishi natijasida inson ongini zabt etishga bo'lgan harakatlar tobora kuchaymoqda. O'z navbatida, mafkuraviy-g'oyaviy ta'sir o'tkazishda axborot asosiy omil vazifasini o'tayotganligini ta'kidlash o'rinlidir. Hozirda, axborot vositasi yordamida insonlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, har qanday axborot xurujlari bevosita axborot qurollari yordamida amalga oshirilayotganligini ta'kidlash lozim. Bugungi kunda, ayrim yetakchi davlatlar bevosita axborotdan vayronkor qurol sifatida foydalanishga intilmoqda. Globallasuv sharoitida, ayrim siyosiy kuchlar va markazlar axborot xuruji orqali yoshlar ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'z navbatida, axborot xuruji orqali yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatish jarayonida avvalo, moddiy,



ma'naviy, ruhiy omillarga bevosita e'tibor qaratiladi. Vaholanki, noan'anaviy va noxolis usullaridan foydalanish zamirida siyosiy maqsadlarini amalga oshirish g'oyasi yotadi.

Shu boisdan, globallashuv sharoitida axborot oqimining yoshlar ongiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatishini anglash va unga e'tibor qaratish talab etilmoqda. Birinchi Prezident I.A. Karimov: "Bugun yon-atrofimizda, uzoq-yaqin mintaqalarda yuz berayotgan voqealarni inobatga oladigan bo'lsak, hali ongi, hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagani yoshlarni chalg'itishga qaratilgan g'arazli kuchlar ham Internet imkoniyatlaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urinayotgani va bunday intilishlar qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi" [1],- deya ta'kidlagan edi. Zero, dunyodagi ayrim mintaqalarida faoliyat ko'rsatayotgan, qudratli siyosiy markazlar ta'siridagi zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalari muayyan mintaq va mamlakatlarni ongli ravishda "nishonga olib", mavjud siyosiy rejim bilan fuqarolar orasiga nifoq solishga intilmoqda. Buning natijasida, mazkur holat mavjud qonuniy hukumatni zaiflashtirishga zamin yaratmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mafkuraviy kurash ommaviy ongga ta'sir ko'rsatishda alohida ahamiyatga egadir.

Shuni aytish kerakki, global o'zgarishlarning tezlashuvi axborot, telekommunikatsiya vositalarining jamiyat hayotidagi mavqeyining oshib borishi va boshqa bir qator mexanizmlar bilan bog'liq holda kechadi. Global o'zgarishlarning o'ziga xos nozik tomonlari shundan iboratki, u ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishga qodir bo'ladi. Ya'ni, bir tomondan butun insoniyat yaratilayotgan ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo'lmoqda, ikkinchi tomondan esa mafkuraviy tajovuz, axborot xurujlari keng quloq yoymoqda.

Axborot xurujlarini amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad, avvalo yirik davlatlarning strategik rejalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Keyingi 15 yil mobaynida AQSh hukumati informatsion qurollar va psixologik ta'sir vositalarini ishlab chiqarish va takomillashtirish uchun sarflanadigan mablag'lar miqdorini 4 barobarga oshirgan" [2]. Bu degani biz yanayam hushyorlik va ogohlikni yo'qotmasligimiz, ochiq axborot maydoni orqali hayotimizga istagan daqiqada kirib kelib o'z ta'sirini o'tkazishga qodir bo'lgan axborot xurujlariga qarshi yanayam mustahkam ma'naviyatli muhitni shakllantirishimiz kerakligini anglatadi. Bu millatimiz kelajagi uchun asl qadriyatlarimizni saqlash, tinch va farovon hayotimiz davomchilari bo'lmish yoshlarimiz ma'naviyati muhofazasi uchun ham muhimdir. Shu ma'noda quyidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz.

- yoshlarimizning kunlik olayotgan axborotlari, agar ular oliy o'quv yurtlari, litsey, kollej talabalariga bo'lsa, dars davomida vaqt ajratib tahlil qilib borilsa;

- nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hisoblanmish mahallalar davlat organlari bilan ijtimoiy hamkorlik asosida doimiy ravishda shu mavzuga oid tadbirlarni yoshlarni jalb qilgan holda tashkil etish;

- axborot psixologik xurujlarga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlarni yanada kuchaytirish va bunda OAV xizmatidan unumli foydalanish.

Necha asrlar davomida rivojlanib sayqal topib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimizga hurmat, go'zal va boy tariximizni chuqur o'rganish, dunyo tan olgan allomalarimizga munosib avlod bo'lish mas'uliyati bugungi yoshlarimiz yelkasida turgan qarzdorlik hissi bilan o'sayotgan yoshlarimiz har xil tahdidlar va xurujlarni to'g'ri baholab, ularga o'zlarining yuksak ma'naviyatli tafakkuri bilan munosib javob beradilar deb ishonamiz. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 24 noyabrda simpoziumlar saroyida Toshkent shahar faollari bilan saylov oldi uchrashuvida, yoshlar tarbiyasiga oid bildirgan quyidagi fikrlarini keltirishni maqsadga muvafiq deb o‘ylaymiz. “Poytaxt aholisining tinch-osuda hayotini ta’minlash, birinchi navbatda, yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasiga, dunyoqarashiga va azaliy urf-odatlarimizni asrab-avaylashga bog‘liq ekanini barchamizga yaxshi ma’lum.

Bu haqda gapirganda, keyingi paytda voyaga yetmagan yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik pasaymasdan, ayrim holatlarda ko‘payib borayotgan barchamizni jiddiy tashvishga solmoqda” [3]. Haqiqatdan ham, shiddat bilan inson ongiga ta’sir etuvchi “siyosiy axborotlarning oqib kelishi”, elektron texnologiya va kompyuterning jamiyat hayotiga chuqur singib ketishi, g‘arb urf-odatlari, ularning o‘zlariga xos va o‘zlariga mos qadriyatlarining kirib kelishi, shuningdek ularning liberal tarzdagi qarashlari, barcha-barchasi mamlakatimiz yoshlarining ruhiyatiga hamda dunyoqarashiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuni alohida e’tirof etish kerakki, “Axborot asri” deb atalayotgan hozirgi zamonda ma’lumot olish va axborot almashishning qulay vositasi internetdir. Biroq bu tarmoqda hamma narsa aralash-quralash, oq bilan qora, ezgulik bilan yovuzlik bo‘lmish qarama-qarshi kuchlar o‘rtasida doimiy ravishda kurash kechadi. Aytish kerakki, ma’lumot tarqatish, biznes va reklama uchun katta maydonga aylangan global tarmoqni nazorat qilishning imkoni yo‘q. Shuning uchun ham “o‘rgimchak to‘ri”da buzg‘unchi g‘oyalar ko‘plab uchraydi. Ko‘p hollarda yoshlar ma’lumotlarni saralamasdan, duch kelgan axborotni to‘g‘ri deb qabul qilishadi. Aslida esa har bir yosh avlod o‘zida to‘g‘ri zararsiz axborotlarni qabul qilish ko‘nikmasini doimiy shakllantirishi lozim. Shuning uchun axborot qabul qilishdan avval, yoshlar “Bu axborotni kim tarqatayapti?”, “Nima uchun tarqatayapti?”, “Maqsadi nima?” degan savollarni o‘zlariga berishi zarur.

Taasufki, bugun yoshlarimizning aksariyati globallashtiruv tufayli Yevropa va xorijiy ma’naviy-madaniy oqimlar ta’siriga ko‘proq ishtiyoqmand bo‘lib, milliy ma’naviyatimizning hayotbaxsh, yuksak axloqiylikka asoslangan tamoyillarga ixlosmandligi sust kechmoqda. Inson qadri, mas’uliyati, axloqiga bepisandlik ba’zi yoshlarning kiyinishi, fe’l-atvori, yurish-turishida yaqqol ko‘zga tashlanib qolmoqda. Zero, dunyoga tarqatilayotgan 80% axborotni sanoqli axborot agentliklari yetkazib bermoqda. Bu ularga xohlagan axborotni o‘z manfaatlaridan kelib chiqqan holda tarqatish imkonini beradi. Bundan ko‘rinadiki, ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali olib borilayotgan g‘oyaviy xurujlar axloqiy xaos xolatini behad kuchaytiradi. Halokatga uchragan kemalar, yongan kasalxonalar, o‘rmonlar, qalbni muzlatib yuboradigan yollanma qotilliklar va boshqa jinoyatlar haqidagi axborotlar har qanday kishi ongida kuchli sarosimalik vujudga keltiradi, chorasizlik, ayanch tuyg‘usini chaqiradi. Haqiqatan ham, hozirgi davrga kelib dunyoning mafkuraviy manzarasi yanada murakkablashdi. Mafkuraviy kurashlar kundan kunga avj olayotir. Bu kurashda g‘olib bo‘lish uchun eng oson va tezkor yo‘l ham tayyor. Ya’ni yirik axborot tarqatuvchi mavqeini egallash. Bugun butun danyoda “axborot urushi”, “informatsion kurash” ketayotir. Buni kimdir payqaydi, kimdir bu masalaga nisbatan sovuqqonlik bilan qaraydi, loqayd. Kurash esa ochiq oydin bo‘lmayapti. U turli aldamechi yo‘llar bilan, nayrang va hiyla bilan olib borilmoqda. Masalan, kinofilmlar, ko‘rsatuvlar, internet va OAV xabarlari orqali bevosita insonlar ongiga biron bir xorijiy mamlakatning turmush tarzi, qadriyatlar tizimini ulug‘lovchi g‘oyalar singdirilmoqda. Natijada esa bunday axborotlar ma’naviyatimizni singdirishga, yoshlarimizni o‘z ona yurtiga daxldorlik ruhida tarbiyalashga salbiy ta’sir etmay qolmaydi. Zero, “Mamlakatimiz aholisi, avvalo, yoshlar qalbidagi amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, shu yo‘nalishdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini yanada



oshirishimiz zarurligi davr talabiga aylanib bormoqda” [4]. Shuning uchun ham, jamiyatda axborot almashinuvi jarayonlariga, aholida axborot madaniyatining yuksalishiga jiddiy ta’sir ko’rsatuvchi omil bu – global va mahalliy kommunikatsiya tarmoqlarining davr talablariga munosib ravishda rivojlanishidir. Buning uchun, birinchi navbatda, axborot texnologiyalari sohasida chuqur bilimga ega mutaxassislarni yetishtirib chiqarish kerak. Shu bilan birga aholida, ayniqsa yoshlarda uzatilayotgan axborotni xavfsizlik jihatidan baholay olish ko’nikmasini, boshqacha aytganda, axborot madaniyatini shakllantirish lozim. Pirovardida bu bilim va ko’nikmalarni axborot xurujlarini bartaraf etishga qarshi qo’yish lozim. Shu bilan birga, yoshlarni global axborot xurujlaridan himoya qilishda, milliy qadriyatlarimizga tayanish, milliy o’zligimizni tarannum etadigan badiiy asarlarni o’qishni keng targ’ib qilish, ma’naviy merosimizni o’rganish, millatimizga xos bo’lgan axloqiy tarbiyani yo’lga qo’yish, yoshlarning ma’naviyatini oshirish kabi, ortga surib bo’lmaydigan ishlarni amalga oshirishimiz zarur.

Aytish kerakki, hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri turli xildagi mafkuraviy, ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashishning samarali yo’llari, usullari va vositalarini yaratishdir. Biz mafkuraviy, ma’naviy va ijtimoiy tarmoqdagi tahdidlarga qarshi kurashning zamonaviy mexanizmlari sifatida quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- yoshlarning imon-e’tiqodini yanada kuchaytirish,
- ularning ichki dunyosi va irodasini yanada baquvvat qilish,
- yoshlarni mustaqil, erkin fikrlash va tahlil qilishga yo’naltirish,
- g’urur va iftixor bilan yashashlariga erishish,
- yoshlarda muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatlarini

qaror toptirish,

- mamlakatimiz xalqlari o’rtasida do’stlik, hamkorlik munosabatlarini yanada kuchaytirish [5].

Ushbu mexanizmlarning ishlashi uchun yagona mafkura – bu O’zbekistonning taraqqiyoti ekanini anglashimiz va bu yo’lda birlashmog’imiz lozim.

Yoshlarning ma’naviyatiga ta’sir qiluvchi omillar nihoyatda xilma-xildir. Ular orasida atrof-muhit ta’siri, kattalar ibрати alohida o’rin tutadi. Ayniqsa, ota-ona va ustoz-tarbiyachilarning ibрати, namunasi yosh avlodga katta ta’sir ko’rsatadi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda, turli axborot xurujiga qarshi tura oladigan davlatning samarali tizimini yanada takomillashtirishga ehtiyoj sezilmoqda. Zero, shunday munosabat orqaligina jamiyatni salbiy g’oyaviy xurujdan ishonchli saqlash, qat’iy himoya qilish mexanizmini yaratish hissi fazilat sifatida yoshlarda shakllana boshlaydi. Sir emaski, mafkuraviy ta’sir jamiyat uchun yangidan yangi xurujlarni keltirib chiqarishi mumkin. Demak, g’oyaviy xuruj qancha ko’p bo’lsa, jamiyatda qo’rquv, hadik va ishonchsizlik shuncha ko’p bo’ladi. Ana shunday ma’naviy, ruhiy, ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib, jamiyat kayfiyatini muvofiqlashtirib, yo’naltirib, boshqarib turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu ma’noda, yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan axborot xurujlarini bartaraf etishga qaratilgan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

globallashtirish va axborot xurujlari sharoitida yoshlar ma’naviyatini yot ta’sirlardan himoya qilishda milliy qadriyatlar, jamiyatning xulq-atvor me’yorlari va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanish zarur,



globallashuv jarayonlarining salbiy oqibatlari barcha sohalarni qamrab olayotgan ekan, ijtimoiy, ma'naviy-mafkuraviy jabhalarda ham unga qarshi mexanizmlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq,

davlatning axborot siyosatini kuchaytirish orqali shu sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini takomillashtirish va yoshlar qalbi, ongi va ichki dunyosi axborot xurujlaridan himoya qilish uchun ularda kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirish lozim,

“axborot xurujlari”, “omnaviy madaniyat” kabi salbiy hodisalarning mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilish va bu borada ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyatini yanada oshirish, yoshlarda milliy qadriyatlarga bo'lgan yangicha munosabatni qaror toptirish kerak,

yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tarmog'idan foydalanish tizimini tartibga solish, ularda internet tarmog'idan maqsadli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Chindan ham biz o'ta murakkab, ziddiyatlarga to'la axborot asrida yashayapmiz. Butun dunyoni to'r singari o'rab olgan Internet tizimi orqali odam har qanday ma'lumotni qabul qilishi yoki uzatishi mumkin.

Demak, biz axborot jamiyati barpo etayotgan ekanmiz, bu boradagi ham siyosiy, ham ilmiy-texnikaviy, ham ma'naviy-ma'rifiy, ham iqtisodiy muammolarni birma-bir bartaraf etish yo'lidan borishimizga to'g'ri keladi. Bu muammolarni muhim-nomuhimga ajratib bo'lmaydi. Chunki, ular bir-birlari bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, biz o'zimizning axborot fazomizni turli xil ichki va tashqi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan asrashimiz, internet tarmog'idan foydalanuvchilar sonining 64% yoshlar bo'lgani uchun “nomaqbul” axborot hurujidan saqlanishimiz kerak. Chunki, bunday ma'lumotlar milliy qadriyatlarimizga, urf-odatimizga, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy dunyosiga, tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Globallashuv jarayonida axborot xuruji yoshlarimizning ongiga, jamiyat taraqqiyotiga, milliy mentalitetimizga tahdid solmoqda. Bunday salbiy holatlarning oldini olishda davlatimiz, jamiyat va fuqarolar manfaatlaridan kelib chiqqan holda yurtimizda axborot-kommunikatsiya sohasida qator qonunlar qabul qilindi va ishlab chiqilyapti. Shunga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarda farzandlarimiz bilan ota-onalar ishtirokida boshqarish ishlarini yo'lga qo'yish lozim.

Xullas, tezkor axborot va internet davri deya ta'riflanayotgan bugungi globallashuv sharoiti bu sohada ham izchil modernizatsiya ishlarini amalga oshirishni taqozo etmoqda. Shu ma'noda axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash bo'yicha huquqiy asoslarni yanada mustahkamlash, jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega fikrlar xilma-xilligini qaror toptirishdir. Bu esa mazkur jabhadagi dolzarb vazifalarning ko'lamini, ularni amalga oshirish zarurligini belgilaydi. Yoshlarimizda internet xavfsizligi bo'yicha immunitet shakllangan bo'lsa, ularga hech qanday axborot xurujlari o'zlarining g'arazli ta'sirlarini o'tkaza olmaydi. Yoshlar bizning kelajagimiz ekan, ularni internet ofatlaridan asrash bugungi kun davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I.A. Demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir / I.A. Karimov. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 346.



2. Maqsudaliyev, A. Globallashuv va ommaviy madaniyat milliy g'oya / A. Maqsudaliyev. – T.: Ma'naviyat, 2009. – B. 17.
3. Mirziyoyev, Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz / Sh.M. Mirziyoyev. – T.: O'zbekiston, 2017. – B. 467-468.
4. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi / Sh.M. Mirziyoyev. – T.: O'zbekiston, 2021. – B. 280.
5. Uzokov, B. Millat ma'naviyatga tahdid – yoshlar ongi va dunyoqarashiga qaratilgan tahdid / B. Uzokov // Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari: xalqaro ilmiy - amaliy konferensiya materiallari. – T.: Fan va texnologiya, 2020. – B. 93-94.

О МЕТОДАХ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ СТРЕЛКОВОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ КУРСАНТОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

ТИЛЛАХОДЖАЕВ Б.А.,

подполковник, старший преподаватель кафедры Военной подготовки Академии МВД РУ

Аннотация. В статье описываются проблемные вопросы огневой подготовленности специалистов силовых структур и на основе анализа рациональной организации процесса педагогического воздействия при обучении боевой стрельбе, предлагаются оптимальные с научной точки зрения, пути их решения.

Ключевые слова: алгоритм применения оружия, оптимальность, огневая подготовка, стрелковый навык, формирование устойчивых навыков стрельбы.

Аннотация. Мақолада куч гузишмалари мутахассисларини ёнгинга тайёрлашнинг муаммолари масалалари баён этилган ва жанговар ўқ отишни ўргатишда педагогик таъсир жараёнини оқилона ташкил этиш таҳлили асосида илмий нуқтаи назардан оптимallasштириш, уларни ҳал этиш йўллари талқин этилади.

Калит сўзлар: курсант қўлғаш алгоритми, оптимallasш, ёнгинга ўргатиш, отиш маҳорати, барқарор отиш кўникмаларини шакллантириш

В настоящее время учебно-воспитательный процесс трудно представить без применения каких-либо инноваций и активных методов обучения, что можно отнести и к стрелковой подготовленности специалистов. Вместе с тем, проводимые в рамках диссертационной работы нами исследования, с главной задачей привития устойчивых навыков стрельбы¹ у сотрудников различных силовых структур показывают, что даже самые новые практические технологии и идеи не всегда приводят к ожидаемым итогам. Объективно это объясняется тем, что любую инновацию, какой бы она современной ни являлась, нельзя воспринимать как концепцию, применение которой позволит обеспечить требуемый уровень привития умений и навыков. Вместе с тем новую идею (гипотезу) можно учесть в роли вспомогательного дидактического метода, с учетом глубины последующего творческого подхода рациональности его применения в определенный момент.

Наблюдениями отмечается, что при проведении занятий часто встречаются крайности, обусловленные использованием в роли методического сопровождения какого-нибудь одного узкого направления наиболее известного и содержащего в себе инновационные технические или иные решения. В большей степени, такая ситуация наблюдается сегодня с применением специальных тренажерных комплексов (СТК).

¹Под устойчивым навыком стрельбы предусматривается способность специалиста постоянно, оперативно, точно и не проявляя ошибок выполнять комплекс установленных подготовительных, сопровождающих и завершающих действий с оружием по ведению огня повышенной результативности из стрелкового оружия.